

## Qishki ta'tildagi ilk seminar

Muayyan bilimga ega bo'lish va o'rganish doimiy ravishda asqotishi aniq. Bu borada tashkil etiladigan seminarlarning ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 29.12.2018 yildagi 87-03-4549 - sonli xatiga binoan talabalarning qishki ta'tili paytida barcha rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilar uchun "Oliy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: xalqaro tajribalar va O'zbekiston amaliyoti" mavzusidagi taqdimot materiallari asosida seminarlar tashkil etish boshlandi.

Bugun 5 yanvar kuni institutimizda tashkil etilgan seminarda soliq siyosati bilan bog'liq muhim masalalarga e'tibor qilindi. Dastavval, institut o'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchisi Dadaxon Xodjayev so'zga chiqdi. U Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlar, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari soni va qabul kvotalari, yangi tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari, oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro innovatsion-korporativ hamkorlik modeli, O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumi, xalqaro tajriba: oliy ta'limni rivojlantirishning innovatsion ekotizimi, professor - o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, milliy reyting tizimi va uning indikatorlari bo'yicha taqdimot dasturi asosida ma'lumot berdi.

Undan so'ng institutimizning bosh hisobchisi Ilhom Hasanov maosh, oylik miqdori borasida atroflicha tushunchalar berib o'tdi. So'ngra taklif etilgan soliqshunos mutaxassis minbarga taklif etildi. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi akademiyasi trening markazi "Soliq munosabatlari" kafedrasini mudiri Asror Valiyev "Soliq xizmati - insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" mavzusida ma'ruza qildilar.

Ular fuqarolarning ish haqidan to'lanadigan soliqlar, sug'urta badali 8% daromad solig'i bekor qilingani borasida so'z yuritdi. So'ngra soliq stavkalarining o'zgarishi, foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, soliq rejimlari, soliq qonunchiligiga doir tushuntirishlar, tadbirkorlarni qiynab kelgan buxgalteriyasiga ko'maklashish, elektron hisob-faktura tizimi, hisobotlarini tayyorlash va topshirish xususida mufassal ma'lumot berib o'tdilar. Ular soha mutaxassisi sifatida institut xodimlari tomonidan berilgan savollarga javob berib ba'zi muammolarga oydinlik kiritdilar.

Davlatning qiyofati, tuzum va tizim mohiyati, taraqqiyot asosi Soliq tizimi bilan bog'liqligi ayon. Boshqarish va ta'minot, ishlab chiqarish va foydalanish borasida soliq tizimi davlat va shaxs orasidagi ko'prikdir. Uni bilish va o'rganish davlat va shaxs orasidagi ishonchni mustahkamlaydi.



**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**